



“Tasdiqlayman”

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor:

A.S.Soleev

30.08.2021 –yil

60530100–KIMYO (TURLARI BO'YICHA) TA'LIM YO'NALISHINING FANLAR KATALOGI

№	Fanning kodi	Fanning nomi	Fanning qisqacha tavsifi	Kredit miqdori	Semestri	Professor-o'qituvchilar: F.I.Sh., ilmiy unvoni va darajasi
1.00-Majburiy fanlar						
1.01	MATM 1007	Matematika	Fanni o'qitishdan maqsad - matematika fanining asosiy maqsadi talabalarga matematika nazariy bilimlarini berish, tegishli tushunchalar, tasdiqlar, matematikaga xos bo'lgan isbotlash usullarini o'rgatish, olgan nazariy bilimlarini masalalar yechishga tadbiq eta bilish, ularda mantiqiy mushohada qilish, fazoviy tasavvur hamda abstrakt tafakkur kabi, inson faoliyatining barcha sohalari uchun zarur bo'lgan qobiliyatni shakllantirishdan iboratdir. Fanning vazifasi - Matematika fani o'qitishning vazifasi talabalarga Matematika nazariyasiga oid bilimlar berish, olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay bilishga o'rgatishdan va oqibat natijada ularni yo'nalishga mos jarayonlar matematik modelini tuzish va tekshira olishga o'rgatishdir.	7	1	U.Sh.Ubaydullayev – SamDU, “Differensial tenglamalar” kafedrasida dotsenti. Sh.M. Burxanov – SamDU, “Differensial tenglamalar” kafedrasida assistenti.
1.02	ATM 1005	Axborot texnologiyalari	Axborot texnologiyalarning texnik va dasturiy ta'minoti, operatsion tizimlar, ofis ilovalari, kompyuter grafikasi, kompyuter tarmoqlari, internet xizmatlari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ta'lim resurslari, elektron hukumat asoslari, kimyoga oid dasturlardan foydalanish va kompyuter algebrasi tizimlarini o'rgatish hamda mutaxassislik oid masalalarni yechishda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari shakllantirish iborat.	5	2	T.Djiyanov. Samarqand davlat universiteti, «Matematik modellashtirish» kafedrasida katta o'qituvchisi
1.03	FIZM	Fizika	Umumiy fizika fanining asosiy maqsadi talabalarni asosiy fizik hodisalar, ularning mexanizmlari, qonuniyatlari va amaliy qo'llanishlari bilan tanishtirishdir. Umumiy fizika fanining asosiy			Jabborov I. - "Umumiy fizika" kafedrasida dotsenti, fizika matematika fanlari

	1007		vazifasi talabalarda ilmiy-amaliy dunyoqarashni, ya'ni fizikaviy hodisalarning tabiatini to'g'ri tasavvur qilish, tabiiy fanlar sohasida qo'yilgan har bir aniq vazifalar mazmunini umumiy fizika qonunlari bilan bog'lash; asosiy fizikaviy o' Ichov asbob-uskunalaridan foydalana bilish; fizika fanining rivojida o'zbek allomalarining qo'shgan hissalaridan g'ururlanishni shakllantirishdir; talabalarining mustaqil ishlash malakasini, tahliliy mulohaza yuritish qobiliyatini, shuningdek asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish mahoratini o'stirish.	6	2-3	nomzodi.
1.04	YeKOM 1002	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi	Fanni o'qitishning maqsadi – tashqi muhit omillarning tirik organizmlarga ta'siri, jamoada organizmlarning va ularning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarning umumiy qonuniyatlari to'g'risida, organizmlarning soni, jamoalar tuzilishi va dinamikasi, ekosistemalar hayotini belgilovchi qonuniyatlar va prinsiplari to'g'risida bilim berishdir. Fanning vazifasi -Talabalarining O'zbekiston "Ekologiya asoslari" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir.	2	1	B.Otaqulov– SamDU, "Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedراسi assistenti
1.05	O'ZTM 1002	O'zbekistonning yangi tarixi	Fanni o'qitishning maqsadi — mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmunmohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida talabaning o'rnini, o'zligini anglatishdan iborat. Fanni o'qitishning vazifalari mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g'urumi shakllantirishdan iborat.	2	1	Normurodova G.B. — SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedراسi mudiri, tarix fanlari doktori. Nasrullayev M.I. — SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedراسi dotsenti, tarix fanlari nomzodi. Xoliqulov R.Sh.- SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedراسi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.
1.06			Fanni o'qitishdan maqsad – yoshlarni zamonaviy fan			J.Ya.Yaxshilikov-

	FALM 1006	Falsafa	yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid eng umumiy qonuniyatlarga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'zni va ahamiyatini ochib berish.	6	5	SamDU “Falsafa” kafedrasida professori, A.A. SamDU, “Falsafa” kafedrasida dotsenti, M.S.Yusupov, SamDU, “Falsafa” kafedrasida assistenti
1.07	O'Z(R)T M 1006	O'zbek (rus) tili	Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarning yangi alifbo imlo qoidalari, davlat tilida ish yuritish va mutaxassisligiga oid terminlarni bilishining ilmiy — nazariy asoslarini, hamda ularni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llay olishni, ilmiy va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Fanning vazifasi — Talabalarni imlo qoidalari, ish yuritish hamda mutaxassislik terminologiyasi bilan tanishtirish.	6	1-2	M.N.Narzieva. Samarqand davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti
1.08	CHYeT M1008	Xorijiy til	Fanni o'qitishdan maqsad O'rganilayotgan chet tilini kommunikativ, lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, kasbiy, umummadaniy kompetentlikni integrallashgan yondashuv asosida o'qitishdan iborat. Fanning vazifasi — Talabalarni chet tilini faol egallashga o'rgatish, ya'ni dastur asosida berilgan mavzular bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini chet tilida bayon eta olish hamda shu tilda bildirilgan fikrlarni anglashdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg'ulotlar)	8	1-2-3-4	SamDU, Ingliz tili kafedrasida assistenti. Negova F.Sh.
1.09	AO'ZTM 1003	O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarning yangi alifbo imlo qoidalari, davlat tilida ish yuritish va mutaxassisligiga oid terminlarni bilishining ilmiy — nazariy asoslarini, hamda ularni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llay olishni, ilmiy va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.	1	1	M.N.Narzieva. Samarqand davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti

			Fanning vazifasi — Talabalarni imlo qoidalari, ish yuritish hamda mutaxassislik terminologiyasi bilan tanishtirish.			
1.10	JISM 1004	Jismoniy tarbiya va sport	Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarni jismoniy madaniyat va sport sohasidagi asosiy tushunchalar, (jismoniy madaniyat, O'zbekiston jismoniy madaniyati, jismoniy tarbiya, O'zbekiston sporti, badan tarbiya, bolalar sporti, sport, jismoniy madaniyat tizimi, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, sport mashqi, jismoniy sifatlar, jismoniy ta'lim, jismoniy madaniyat harakati, Olimpiya o'yinlari, Olimpiya harakati, talabalar sporti, uch bosqichli sport musobaqasi "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" va h.k) maxsus nazariy bilimlar, jismoniy rivojlanish, tayyorgarlikni o'stirishga oid zamonaviy nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni oshirishga yordam beruvchi vosita va metodlarni, o'z-o'zini jismoniy mukammallashtirish, ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va ulardan mustaqil foydalanishga o'rgatish.	4	1-2	O.K.Raupov — SamDU Fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrasida dotsenti A.A.Qurbonov — SamDU Fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrasida katta o'ituvchisi
1.11	NKIMM 10022	Noorganik kimyo	Noorganik kimyo atom hamda moddalarning tuzilishi, ularning fizikaviy va kimyoviy xossalarini o'z ichiga olgan kimyoviy fanlarning eng asosiysidir. Noorganik kimyo fanining maqsadi moddaning tuzilishi va boshqa nazariy kimyoning tushunchalari haqida hozirgi zamon ma'lumotlaridan foydalanib, davriy qonun va davriy sistema asosida kimyoviy elementlar, ular birikmalarining xossalarini tushuntirib berish va bashorat qila bilishni o'rgatishdan iborat.	22	1-2	T.S.O'razov— SamDU, "Noorganik kimyo va materialshunoslik" kafedrasida dotsenti. A.S.Mamatov – SamDU, "Noorganik kimyo va materialshunoslik" kafedrasida assistenti. E.R. Buvrayev – SamDU, "Noorganik kimyo va materialshunoslik" kafedrasida assistenti.
1.12	AKIMM	Analitik kimyo	"Analitik kimyo" fani talabalarni o'qish davomida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, analizning umumiy va nazariy asoslari, kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy metodlarning	20	3-4	SamDU, Analitik kimyo kafedrasida k.f.d. prof. E.Abduraxmanov,

	10020		<p>asosiy prinsiplari bilan tanishtiradi</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga analitik kimyo kursi xaqida umumiy tushuncha berish, kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy metodlarning asosiy prinsiplari bilan tanishtirishdan iborat.</p>			<p>k.f.n. dots.E.Ro'ziev, f-m.f.n. dots.A.Quvatov, k.f.n. dots. Q.Muradov, ass. J.Begimqulov, kat.o'q. M.Mamirzayev</p>
1.13	OKIMM 10018	Organik kimyo	<p>Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga organik kimyo asoslarini, organik birikmalarning tuzilishi bilan kimyoviy – fizikaviy xossalarini bog'laydigan umumiy qonunlarni, organik birikmalarni sintez qilishning zamonaviy usullarini, kimyoviy xossalarini, ularning sanoatda, qishloq xo'jaligida, tibbiyotda va boshqa sohalarda qo'llashni o'rgatishdan iborat.</p>	18	5-6	<p>PhD, dots. Nasrullayev A.O., PhD ass. Tuxtayev D.B. – SamDU Organik sintez va bioorganik kimyo kafedrası</p>
1.14	FKIMM 10019	Fizikaviy kimyo	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda Fizikaviy kimyo qonunlarining ma'nosini yoritib berish, shu qonunlarning qo'llanish sohaslarini o'rgatish va aniq kimyoviy masalalarni xal qilishda ushbu qonunlarning amaliy imkoniyatlarini to'g'ri tushuntirish. Shu sababli, fizikaviy kimyoda fan asoslarini o'rganishda, bu fanning barcha bo'limlari o'rtasidagi mavjud bog'liqlikni yoritish kabi tushunchalardan bilim ko'nikma va malaka shakllantirishdir</p>	19	3-4	<p>Muxamadiyev N.Q SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası prof., Trobov X.T., SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası prof., Vasina S.M. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası dots.</p>
1.15	KKIMM 1005	Kolloid kimyo	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda dispers fazalarning qanday paydo bo'lganligi, ularning barqarorligi va boshqa xossalari bo'lsa, hamda o'z tabiati va fizikaviy xolati bilan bir-biridan farq qiluvchi fazalararo sirt chegaralarida sodir bo'ladigan mexanik va elektr xossalariga ega bo'lgan sirtlarda geterogen strukturalarning rivojlanish tushunchalaridan bilim ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p>	5	4	<p>Vasina S.M. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası dots., Sayitqulov Sh.M. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası dots., Zufarov A.M. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası ass.</p>
1.16	MTUZM		<p>"Modda tuzilish" fanini o'qitishdan maqsad bo'lajak bakalavrlarga mikrozarrachalardan tashkil topgan moddalarni turli xil tashqi maydonlar bilan ta'sirlashuvi natijasida makrosistemalarda ro'y</p>	3	4	<p>Xalilov Q.F. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası dots.</p>

	1003	Modda tuzilishi	beradigan jarayonlar asosida ularning mexanizmi, kvant-mexanik sabablarini tushuntirishga va bu yo'lda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishga erishishga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarni moddalarga xos bo'lgan turli fizik-kimyoviy xususiyatlar, ularning kelib chiqish sabablari bilan tanishtirish, bu maqsadlarga erishish yo'lida qo'llaniladigan usullar va uskunalar, ularning ishlash prinsiplari bilan tanishtirish va olingan natijalarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishga yo'l ochish fanni o'qitishning vazifalarini ham tashkil qiladi.			
1.17	KO'MM 1002	Kimyo o'qitish metodikasi	<p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni kimyo o'qitishning usullari, dars turlari, bilimlarni nazorat qilish usullari hamda kimyo fanining muhim mavzularini o'qitish, organizmning xilma-xilligi, ularning jamoadagi va biosferadagi roli, kimyo darslarini olib borishda ishlatiladigan pedagogik texnologiyalar ayrim mavzularga bag'ishlangan laboratoriya ishlarini o'tkazish uslublari bilan tanishtirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – kimyo o'qitish usullari, dars turlari va unga bo'lgan talablar, dars o'qitishda nazorat turlari, boshlang'ich kimyoviy tushunchalar va asosiy anorganik moddalar turkumlari, davriy qonun va kimyoviy elementlar davriy sistemani o'qitish uslubi bilan tanishtirishdan iborat.</p>	2	6	A.M. Nasimov - SamDU "Noorganik kimyo va materialshunoslik" kafedrasi proffesori, t.f.d.
1.18	KTARM 1003	Kimyo tarixi	<p>Talabalar kimyoni faqat bugungi kundagi o'rnini tasavvur qilish bilan chegaralanmasdan u yoki bu yutuqlarga tasodifiy ravishda emas, chuqur izlanishlar, ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida qilingan urinishlar, yaratilgan noto'g'ri va to'g'ri gipotezalarning o'rin almashuvi tufayli erishilganligini tarixiy ma'lumotlarga tayangan holda ilmiy asosda bilib olishiga erishishdan iboratdir.</p> <p>"Kimyo tarixi" fanini o'qitishning vazifalari shundan iboratki, avvalo kimyo so'zining kelib chiqish tarixini aniqlab, dastlab hunar sifatida maydonga kelgan kimyoning rivojlanish bosqichlari bilan tanishishdir, alximiya fanining asossiz ravishda 1200 yil davomiylik sabablarini tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish, kimyoning fanga aylanishiga yo'l ochib bergan omillar va olimlar</p>	3	3	A.M. Nasimov - SamDU "Noorganik kimyo va materialshunoslik" kafedrasi proffesori, t.f.d.

			bilan tanishish, kimyo qonunlarining kashf qilinish tarixini o'rganish va uning hozirgi zamondagi istiqbolli yo'nalishlari va muammolarini tahlil qilishdan iboratdir.			
1.19	KVKM 1003	Kvant kimyosi	Kvant kimyosi – talabalarda kvant kimyoviy muammolarni xal qilish, kimyoviy bog'ni kvant mexanik nuqtai nazardan asoslash, valent bog'lar, molekulyar orbitallar va Xyukkel usullari, molekulyar diagrammalar va molekularlarning reaksiya qobiliyati kabi tushunchalardan iborat bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.	3	5	SamDU. Analitik kimyo kafedrasida. k.f.d. prof. E.Abduraxmonov f-m.f.n. dots. A.Quvatov
1.20	UPSIXM 1003	Umumiy psixologiya	Umumiy psixologiya fanining mohiyati, psixikaning rivojlanishi, shaxs psixologiyasi, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi individual-psixologik xususiyatlar, psixologik holatlar hamda shaxsning shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan psixologik, fizologik va jismoniy o'zgarishlar, shuningdek shaxsga xos sifat, xususiyat, holatlar ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishning yoshga bog'liq jihatlarini	3	5	G.Xalbaeva, SamDU "Umumiy psixologiya" kafedrasida assistenti
1.21	UPEDM 1002	Umumiy pedagogika	Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari va o'qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta'lim amaliyotida, yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o'rgatish. Fanning vazifalari: - O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va davlat ta'lim standartlari asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ta'limni samarali tashkil etishga o'rgatish; - Talabalarni didaktika, tarbiya nazariyasi, ta'lim tizimini boshqarish, pedagogik firklarining tarixiylik va pedagogik mahoratning mohiyati yuzasidan nazariy bilimlarni hosil qilish; - Umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmuni, milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatini yaratish; - Talabalarga ijtimoiy yordamga muxtoj shaxslarga ta'lim berish, ularni shaxs sifatida rivojlantirish borasidagi xalqaro tajribalarni	2	6	Muradova.N.B SamDU "Pedagogika" kafedrasida assistenti

			o'rganish			
1.22	KMODM 1003	Kimyoda kompyuter modellashtirish	Fanning maqsadi talabalarda kimyoviy masalalarni kimyoviy birikmalarning tuzilishi va xossalarini o'rganishni matematik nuqtai nazardan tasavvur xosil qilish va berilgan masalalarni kompyuter sistemasi yordamida echim usullarini o'zlashtirishdan iborat	3	3	Muxamadiyev N.Q SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası prof., Uzoqov J.R. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası ass.,
1.23	YMBM 1006	Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga yuqori molekulyar birikmalar molekulalarining katta o'lchami va zanjirsimon tuzilishga egaligi sababli, oddiy quyimolekulyar moddalardan farqlanuvchi o'ziga xos xossalarini tushuntirishdan va bu xossalardan foydalanishda amaliy ko'rsatmalar berishdan iboratdir. Polimer moddalar makromolekulasining xususiyatlari, yuqori molekulyar birikmalarning sintezi va uning muhim qonuniyatlari, fizik-kimyoviy va fizikaviy-mexanik xossalarining asosiy xususiyatlari, yuqori molekulyar birikmalar kimyosida qo'llanadigan usullar va sanoatda hamda turmushda keng qo'llaniladigan yuqori molekulyar birikmalar xaqida yo'nalish profiliga mos ko'nikma va malaka shakllantirishdir	6	5-6	Toshmatova R.V. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası dots., Xakimov F.X., SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası dots., Muxamadiyev A.N. SamDU, "Fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrası PhD
1.24	BIOKM 1006	Bioorganik kimyo	Bioorganik kimyo fanini o'qitishdan maqsad talabalarni: bioorganik kimyo fani to'g'risida asosiy tushunchalar; muhim sinf moddalarining vakillari haqida tushunchalar; soha bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning usullari; tirik tabiatdan olinadigan birikmalar va ularning hayotiy faoliyatdagi o'rni; quyi molekulyar tabiiy birikmalar sinflanishi haqida tushunchalar; o'simliklarda uchraydigan xilma-xil quyi molekulyar tabiiy birikmalarning kimyosi; ushbu moddalarni o'simliklardan ajratib olish usullari bilan tanishtirish; tabiiy birikmalarning kundalik hayotimizdagi ahamiyati, qo'llanishi va biologik xossalari haqida chuqur tushuncha berish; biologik faollikka ega bo'lgan sun'iy organik birikmalar bilan tanishtirishdan iborat.	6	6-7	Tillayev S.U. – k.f.n., dots. SamDU organik sintez va bioorganik kimyo kafedrası
1.25	KBKM1 002	Kristallokimyo	Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga kristall holatdagi moddalarning tuzilishi to'g'risidagi bilimlarini shakllantirish,	2		X.Sh.Tashpulatov– SamDU, "Noorganik kimyo

			<p>moddalarning kimyoviy tarkibi va fizik xossalarini ularning kristall tuzilishi orasidagi bog'liqlikni aniqlash, kristallokimyo qonunlarini o'rgatish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Ushbu maqsadga erishish uchun fan magistrantlarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kristall moddalarning tuzilishi va ularning fizik xossalari, kristall tuzilishdagi moddalarning kimyoviy bog'lanish tabiatini aniqlash hamda kristallokimyoviy xodisalarining mohiyatini ochib berish asosida ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> <p>Fanning vazifasi - kristallokimyoning asosiy qonunlari, kristallar simmetriyasi, atom va ion radiuslari, kristall panjara turlari, kristallarning rentgenstrukturaviy analiz, neytronografiya va elektronografiya imkoniyatlari, simmetriya guruhlarining fazoviy tuzilishini grafik ifodalash usullari, birikmalar tuzilishini aniqlash uchun elementar katakchalarning parametrlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;</p>			va materialshunoslik" kafedrasida dotsenti.
1.26	NGKM1 003	Neft va gaz kimyosi	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga Respublikamizdagi neft-gaz sanoati haqida, neftni qayta ishlashdagi katalitik jarayonlar va ularning mexanizmlari, neft va tabiiy gazni krekingi va riformingi asoslarini, neftni rektifikatsiyasini, tabiiy gaz pirolizi mexanizmini, neft va tabiiy gaz asosida monomerlar sintez qilish, neft uglevodorodlari asosida organik birikmalar sintez qilish jarayonini, neft tarkibidagi uglevodorodlarning harorat ta'sirida kimyoviy o'zgarishini o'rgatishdan iborat.</p>	3	7	SamDU Analitik kimyo kafedrasida k.f.d. prof. E.Abduraxmanov, k.f.n. dots. Q.Muradov,
1.27	GBKM 1002	Geterosiklik birikmalar kimyosi	<p>Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga organik birikmalarining yirik sinflaridan biri bo'lgan geterosiklik birikmalarni o'rgatishdan iborat. Xususan, geterosiklik birikmalarni axamiyati tabiatda tarqalishi, tuzilishi, nomlanishi haqidagi ko'nikmalarni shuningdek, laboratoriya sharoitida zamonaviy usullar orqali ularni sintez qilish ko'nikmalarini shakllantirib, kelgusida amaliy tadqiqodlar uchun yo'naltirishdan iboratdir.</p>	2	6	A.Nasrullayev – Organik sintez va biorganik kimyo kafedrasida dotsenti, PhD D.Tuxtayev – Organik sintez va biorganik kimyo kafedrasida

						assistenti, PhD
1.28	KTEXM 1009	Kimyoviy texnologiya	<p>Fanni o'qitishdan maqsad- sanoatda amalga oshiriladigan kimyoviy texnologik jarayonlar, ularning qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, xom-ashyo va issiqlik-energiya resurslaridan unumli foydalanish, iqtisodiy samaradorligi, ekologik xavfsizligi xaqida yo'nalish profiliga mos bilim ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - kimyoviy texnologiyaning asosiy elementlari, sinflarini; kimyo sanoatining xomashyosi, uning turlari, manbalari va ularni boyitish usullarini; noorganik moddalar ishlab chiqarish usullarini o'rgatishdan iborat.</p>	9	7-8	Fayzullayev N.I. – SamDU, “Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya” kafedrası professori, t.f.d
1.29	FTUM 10010	Fizikaviy tadqiqot usullari	<p>Fizikaviy tadqiqot usullari fani- talabalarga fizikaviy tadqiqot usullarining asoslarini, kimyoviy–fizikaviy xossalarni bog'laydigan umumiy qonunlarni, kimyoviy birikmalarni tuzilishini aniqlashning zamonaviy usullarini, kimyoviy xossalarni, ularning sanoatda, qishloq xo'jaligida, tibbiyotda va boshqa sohalarda qo'llashni va analiz qilishni o'rgatishdan iborat bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p>	10	7-8	SamDU, Analitik kimyo kafedrası. f-m.f.n. dots.A.Quvatov (PhD) R.Begmatov ass. O.A.Kuchkarov
1.30	TBAM10 03	Tibbiy bilim asoslari	<p>Fanni o'qitishdan maqsad - «Tibbiy bilim asoslari» ijtimoiy fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib talabalar uni I va II semestrlarda o'rganishadi.Tibbiy bilim asoslari fanining bosh muhim vazifasi: Talabalarga odam organizmining tuzilishi,fiziologiyasi, kasalliklarning kelib chiqish sabablari,belgilarini,davolash usullarini bemorlarni parvarish qilish, kasalliklarni oldini olish, shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish usullarni,fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni beradi.</p>	3	8	Z E.Qobilov – SamDU, “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası professori, biologiya fanlari doktori.

1.31	YFGM10 02	Yosh fiziologiyasi va gigiyena	Fanni o'qitishdan maqsad - ontogenezning turli davrlarida organizmning fiziologik xususiyatlari, bo'lishi mumkin bo'lgan buzilishlar va ularni korreksiyalash, hayot kechirish faoliyati, organizmning bir butunligi, uning ashqi muhit bilan uzviy bog'liqligi, organizm, a'zo-tizimlari fiziologik faoliyati va ularning boshqarilishida asab va gumoral tizimlar roli, boshqarilish mexanizmlari, tashqi muhitga moslashish mexanizmlari haqidagi bilimni imalda qo'llashga erishish ko'zda tutiladi.	2	1	M.S. Kuziyev – SamDU, “Oda” kafedrasini mudiri, biologiya fanlari kafedrasini dotsenti, biologiya fanlari
2.00-Tanlov fanlari						
2.01	1TF2004	t. f.1.Noorganik kimyoning tanlangan boblari	Fanni o'qitishdan maqsad noorganik kimyoning tanlangan boblarining nazariy asoslarini, asosiy tushunchalari va usullarini, atrof-muhitdagi har bir ob'ektlarning elementar kimyoviy tuzilishini, sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash usullaridan foydalanib chuqur bilim berish hamda ularni amaliyotda tadbqiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.	4	5	A.M. Nasimov - SamDU "Noorganik kimyo va materialshunoslik" kafedrasini proffesori, t.f.d.
2.02	2TF2004	t. f.2.Analitik kimyoning tanlangan boblari	Fanni o'qitishning maqsad - talabalarga “Analitik kimyoning tanlangan boblari” ning nazariy asoslarini, va metodlarini, atrof-muhitdagi har xil ob'yektlarning elementar kimyoviy tuzilishini, sifat va miqdoriy aniqlanishni ta'minlaydigan metodlarning ma'lumotlaridan foydalanib chuqur bilim berish va ularda mantiqiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.	4	5	SamDU Analitik kimyo kafedrasini. k.f.n. dots.E.Ro'ziev, kat.o'q. M.Mamirzayev
2.03	3TF2004	t. f.3.Fizikaviy kimyoning tanlangan boblari	Фанни ўқитишдан мақсад – талабаларда Физикавий кимё қонунларининг маъносини ёритиб бериш, шу қонунларнинг қўлланиш соҳаларини ўргатиш ва аниқ кимёвий масалаларни ҳал қилишда ушбу қонунларнинг амалий имкониятларини тўғри тушунтириш. Шу сабабли, физикавий кимёнинг танланган боблари фани асосларини ўрганишда, бу фаннинг барча бўлимлари ўртасидаги мавжуд боғлиқликни ёртиш каби тушунчалардан билим кўникма ва малака шакллантиришдир	4	6	Trobov X.T., SamDU, “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedrasini prof., Vasina S.M. SamDU, “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedrasini dots., Fazliyeva N.T. SamDU, “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedrasini PhD.
			Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga organik kimyo asoslarini, organik birikmalarning tuzilishi bilan kimyoviy – fizikaviy	4	6	D.Tuxtayev – Organik sintez va biorganik

2.04	4TF2004	t. f.4.Organik moddalar tuzilish nazariyasi	xossalarini bog'laydigan umumiy qonunlarni, organik birikmalarni sintez qilishning zamonaviy usullarini, kimyoviy xossalarini, ularning sanoatda, qishloq xo'jaligida, tibbiyotda va boshqa sohalarda qo'llashni o'rgatishdan iborat.			kimyo kafedrasida assistenti, PhD
2.05	5TF2004	t. f.5. Noorganik materiallar kimyosi	<p>Fanni o'qitishdan maqsad-talabalarga materialshunoslik fani, uning kelib chiqishi, rivojlanishi, bu fanni boshqa fanlar bilan bog'liqligini chuqur va izchil tushuntirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - fanni o'qitish davomida quyidagi asosiy mavzular keng yoritiladi, jumladan: Materiallar kimyosi fanining tarixi va asosiy vazifalari, atom tuzilishi va elementlar davriy jadvali, kimyoviy bog'lanish turlari, molekulararo ta'sirlar va vodorod bog'lanish, qattiq jismlarning tuzilishi, metallar, yarimo'tkazgichlar, keramik materiallar, polimer materiallar, nanomateriallar, kompozitsion va smart materiallar, materiallar xossalarini o'rganish usullari, materiallarning mexanik xossalari, materiallarning optik xossalari, materiallarning magnit xossalari, materiallarning termik xossalari, materiallarning elektr xossalari, materiallarning korroziyasi va eskirishi to'g'risida to'liq ma'lumotlar berishdan iborat.</p>	4	7	X.Sh.Tashpulatov– SamDU, “Noorganik kimyo va materialshunoslik” kafedrasida dotsenti.
2.06	6TF2005	t. f.6.Gazlar analizi va xromatografiyasi	Bugungi kunda atmosfera xavosi va gaz aralashmalari tarkibi va ularning holatini nazorat qilish muammolari ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Kursning asosiy maqsadi atrof- muhit obektlaridan biri bo'lgan atmosfera xavosi va gaz aralashmalari tarkibini analiz qilish usullari, gazlardan analiz uchun namunalar olish yo'llari, ularni analizga tayyorlash amallari bilan talabalarni yaqindan tanishtirish.	5	7	SamDU Analitik kimyo kafedrasida k.f.d. prof. E.Abduraxmanov, k.f.n. dots. Q.Muradov, ass. J.Begimqulov, kat.o'q. M.Mamirzayev
2.07	7TF2004	t. f.7.Xromatografik jarayonlar fizikaviy kimyosi	bakalavrlarda xromatografik usullarning nazariy asoslari, xromatografik usullarning xilma-xilligi, ularni kasbiy, ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ishlab chiqarish faoliyatlaridagi turli masalalarni echishda qo'llanilishi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish	4	8	Xalilov Q.F. SamDU, “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedrasida dots., Sayitqulov Sh.M. SamDU, “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedrasida dots.

2.08	8TF2005	t. f. 8. Getrotsiklik brikmalar kimyosi	Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga organik birikmalarning yirik sinflaridan biri bo'lgan geterosiklik birikmalarni o'rgatishdan iborat. Xususan, geterosiklik birikmalarni axamiyati tabiatda tarqalishi, tuzilishi, nomlanishi haqidagi ko'nikmalarni shuningdek, laboratoriya sharoitida zamonaviy usullar orqali ularni sintez qilish ko'nikmalarini shakillantirib, kelgusida amaliy tadqiqodlar uchun yo'naltirishdan iboratdir.	5	8	A.Nasrullayev – Organik sintez va biorganik kimyo kafedrası dotsenti, PhD D.Tuxtayev – Organik sintez va biorganik kimyo kafedrası assistenti, PhD
------	---------	---	---	---	---	---

“Kelishildi”

O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i:

M.O':



Fakultet dekani:

N.Musulmonov

M.O':

